

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL
ETISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING
QIYOSIY TAHLILI**

Fazliddinova Shirin Kamarovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: mahfuzaomonullayeva@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili fanini, xususan ot so'z turkumini o'rgatishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Ta'lim sohasidagi rivojlanish, raqamli texnologiyalarning keskin o'sishi hamda pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish ehtiyoji fonida darslarni tashkil etishning samarali metodlari yoritilgan. Maqolada zamonaviy metodlar yordamida ot so'z turkumini ongli, amaliy va qiziqarli tarzda o'rgatishning afzalliklari asoslanadi. Integrativ yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy yondashuv, zamonaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim, ot so'z turkumi, interaktiv metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial yondashuv.

Ta'lim sohasida yuz berayotgan chuqur islohotlar, ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichga chiqishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga bo'lgan yondashuvlarni tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy o'qitish usullari o'rnini bosib borayotgan zamonaviy, interaktiv va innovatsion metodlar bugungi kunda o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham yangicha fikrlash, texnologik vositalardan samarali foydalanish, ijodiy yondashuv va mustaqil ta'lim olishga tayyorlikni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini tashkil etishda, xususan, ot so'z turkumini o'rgatish jarayonida bu o'zgarishlar

SJIF:5.219

yanada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Endilikda, faqat grammatik qoidalarni yodlash yoki ko‘p miqdorda yozma mashqlar bajarish emas, balki har bir o‘quvchining mavzuni tushunish, analiz qilish, hayotiy misollar asosida ongli ravishda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda axborot-kommunikatsion texnologiyalar, multimediya vositalari, raqamli o‘quv platformalari kabi zamonaviy resurslardan foydalanish darslarning sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Biz ta’lim jarayonida ham an’anaviy ham zamonaviy yondashuvni birgalikda olib borishimiz ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida bu ikki yondashuvning xususiyatlarini solishtirib o‘tamiz: an’anaviy o‘qitish uslubi uzoq yillar davomida ta’lim jarayonining asosi bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, bugungi kunda uning o‘rnini asta-sekin innovatsion, zamonaviy metodlar egallab bormoqda. An’anaviy metodlar o‘zida ko‘proq **o‘qituvchi markazda bo‘lgan** yondashuvni mujassam etadi. Bu usulda o‘qituvchi asosiy bilim manbai, o‘quvchilar esa faqat bilimni eshitib qabul qiluvchi passiv ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi. Dars jarayoni, odatda, frontal shaklda, ya’ni butun sinfga bir xil mazmundagi ma’lumotlar va topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Bunday yondashuvda o‘quvchilar darslik asosida ishlashadi, mavzular bo‘yicha berilgan asosiy ma’lumotlarni yodlashga urg‘u beriladi. Ko‘pincha bu holat eslatma va grammatik qoidalarni so‘zma-so‘z yod olishga olib keladi. Darsda o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishlari asosiy o‘rinda turadi va o‘quvchilar asosan eshitish orqali ma’lumotni qabul qiladilar. Grammatik qoidalar va mavhum, ya’ni abstrakt tushunchalarni mustahkamlash uchun ko‘plab yozma mashqlardan foydalaniladi. Shuningdek, darsda vizual yoki ko‘rgazmali materiallardan foydalanish juda kam hollarda kuzatiladi, bu esa ayniqsa

boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mavzuni tushunishni qiyinlashtiradi. Frontal yondashuvda individual yondashuvdan voz kechiladi, ya'ni barcha o'quvchilarga bir xil topshiriq beriladi. Natijada, har bir bolaning o'ziga xos idrok darajasi, o'rganish uslubi va qiziqish doirasi hisobga olinmaydi. Baholash asosan og'zaki savol-javob yoki yozma nazorat ishlari orqali amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarning yod olishga asoslangan bilimlarini baholashga olib keladi. Bunday dars shaklining bir qator kamchiliklari mavjud. Avvalo, o'quvchining mustaqil fikrlash imkoniyati cheklanadi, chunki u tayyor bilimni qabul qiladi, lekin uni tahlil qilish, qo'llash yoki yangilash jarayonida faol ishtirok eta olmaydi. Darsning bir xilligi va o'quvchi ehtiyojlarining hisobga olinmasligi sababli qiziqish va motivatsiya past bo'lishi mumkin. Natijada, o'quvchilarda nutq faoliyati, ijodiy fikrlash va muloqot ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmaydi. Darslarning harakatsiz, passiv ishtirokga yo'naltirilgan shaklda tashkil etilishi o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida jamlay olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologik vositalardan foydalanmaslik yoki ularning juda cheklangan tarzda qo'llanilishi esa o'quv jarayonini bugungi kunda talab etilayotgan interaktiv va innovatsion o'qitish standartlaridan chetda qoldiradi. Shuningdek, barcha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmagani holda, ularga bir xil yondashuv qo'llanilishi natijasida ayrim o'quvchilarning orqada qolishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuvlar, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirish, hamda ijtimoiy-psixologik va lingvistik kompetensiyalarni

rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, til o'rgatish jarayonida — ayniqsa, ot so'z turkumini o'rgatishda - zamonaviy metodikalar o'quvchilarning ongli va faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy darslar, avvalo, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi, qiziqish sohasi va ehtiyojlari asosida moslashtirilgan topshiriqlar beriladi. Bunday yondashuvda ko'rgazmali vositalar, vizual va eshitish materiallari, harakatga asoslangan kinestetik faoliyat keng qo'llaniladi. Bu orqali bilimlar nafaqat tushunarli, balki ko'zga ko'rinadigan, quloqqa eshitiladigan va harakat bilan uyg'unlashtirilgan tarzda mustahkamlanadi. Dars jarayonining ajralmas qismiga aylangan interaktiv metodlar - rolly o'yinlar, muammoli vaziyatlar, klaster va sinkveynlar, mantiqiy-fikrlash mashqlari - orqali o'quvchilarning faolligi va fikrlash qobiliyati kuchayadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan - slaydlar, videodarslar, interaktiv ilovalar, onlayn testlar va ta'limiy o'yinlardan - samarali foydalanish darsni zamonaviylashtiradi. Bu nafaqat o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, balki ularning bilimini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Zamonaviy darslar ko'p hollarda guruhlarda ishlash asosida tashkil etiladi. Guruhli faoliyat, jamoaviy muhokama, bahs va fikr almashuvlar orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, o'z fikrini asoslash va hurmat bilan tinglash ko'nikmalarini egallab boradilar. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy darslarda o'qituvchi endilikda faqatgina bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va maslahat beruvchi rolida faoliyat yuritadi. O'quvchilar esa bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, tahlil qiluvchi va

SJIF:5.219

amalda qo‘llovchi subyekt sifatida shakllanadi. Zamonaviy yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri - o‘quvchining darsga bo‘lgan ichki motivatsiyasi va qiziqishini oshirishidir. Shu orqali o‘zlashtirish chuqurlashadi, grammatik tushunchalar esa hayotiy misollar, kontekst va ko‘rgazmali vositalar asosida ongli ravishda o‘zlashtiriladi. Mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga tanqidiy yondashish, yangi vazifalarni mustaqil hal etish ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada, o‘quvchilarda ijodkorlik, muloqot madaniyati va nutqiy kompetensiyalar rivojlanadi. Shuningdek, ta‘lim jarayoni interaktiv, jonli va o‘quvchini qiziqtiradigan muhitda olib boriladi, bu esa o‘quvchida fan bo‘yicha ijobiy emotsional munosabatni shakllantiradi. Har bir bola o‘z imkoniyatlariga mos tempda o‘rganadi, individual va differensial yondashuv asosida bilim oladi. Natijada esa o‘rganish jarayoni har bir bola uchun qulay, mazmunli va samarali kechadi.

Ta‘lim jarayonida an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlar orasida sezilarli farqlar mavjud. Eng avvalo, o‘quv jarayonining markazida nimaning turishi bu ikki yondashuvni ajratib turadi: an‘anaviy yondashuvda o‘qituvchi asosiy rolni bajaradi, u bilimni tayyor holda beruvchi sifatida qatnashadi. Aksincha, zamonaviy yondashuvda o‘quvchi jarayon markaziga qo‘yiladi - u bilim egallovchi emas, balki faol ishtirokchi, izlanuvchi va ijodkor sifatida baholanadi. Bilim berish usuli nuqtai nazaridan qaraganda, an‘anaviy usullarda asosiy e‘tibor nazariy tushunchalarni yodlashga qaratiladi, darslar ko‘proq og‘zaki tushuntirish va yozma mashqlar bilan chegaralanadi. Zamonaviy yondashuvda esa ta‘lim faoliyatga asoslanadi: o‘quvchilar interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar orqali bilimni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Darsning mazmuni jihatidan ham

sezilarli tafovut mavjud. An'anaviy ta'lim kitobga tayanadi, darslikdagi matn va mashqlarning takrorlanishiga asoslanadi. Zamonaviy yondashuv esa hayotiy holatlarga yaqin, o'quvchining kundalik tajribasiga mos keladigan, kontekstual yondashuvga asoslangan bo'ladi. O'quvchining darsdagi ishtiroki ham keskin farq qiladi. An'anaviy yondashuvda o'quvchi asosan passiv tinglovchi, berilgan topshiriqlarni bajaruvchi rolida qoladi. Zamonaviy metodlarda esa o'quvchi darsning faol ishtirokchisi, muhokamalarda qatnashuvchi, mustaqil fikr bildiruvchi, ijodiy yondashuvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ham ikki yondashuv keskin farq qiladi. An'anaviy darslarda, odatda, mashqlar, diktantlar, savol-javoblar kabi an'anaviy vositalar qo'llaniladi. Zamonaviy yondashuvda esa axborot-kommunikatsion texnologiyalar - kompyuter, slaydlar, interaktiv doskalar, onlayn o'yinlar va testlardan faol foydalaniladi. Natijaga erishish darajasi jihatidan esa an'anaviy usulda o'zlashtirilgan bilimlar ko'pincha yodlangan bo'ladi va barqaror emas. Zamonaviy metodlarda esa bilimlar ongli ravishda o'zlashtiriladi, amaliy faoliyatga tayanganligi sababli mustahkam va uzoq muddatli bo'ladi. Zamonaviy yondashuv yordamida ot so'z turkumini o'rgatish darslari quyidagicha farqlanadi: Masalan, ot so'z turkumini zamonaviy usulda o'rgatishda, o'quvchilar har bir so'zning shakli va ma'nosini mustaqil ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars jarayonida multimedia vositalaridan - rasmlar, videolar, animatsiyalardan foydalanish orqali mavzu yanada jonli va tushunarli bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarda esa o'quvchilar matnlardan ot so'zlarni ajratish, ularni turkumlarga bo'lish, yasalgan so'zlarni aniqlash kabi topshiriqlarni bajarib, tahliliy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradilar. Shuningdek, ular o'z fikrlarini og'zaki va

SJIF:5.219

yozma shaklda ifodalash orqali otlarni to'g'ri va kontekstga mos ravishda qo'llashni o'rganadilar, bu esa ularning kommunikativ nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda dars berish metodlari, xususan, ona tili darslarida qo'llaniladigan yondashuvlar - o'quvchilarning tilga bo'lgan munosabatini, bilimlarni o'zlashtirish darajasini va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. An'anaviy metodlar uzoq yillar davomida amaliyotda keng qo'llanilgan, ma'lum darajada ijobiy natijalar ham bergan. Bu yondashuvda asosiy urg'u o'qituvchining og'zaki tushuntirishi, o'quvchining esa tayyor bilimni yod olishi va uni takrorlashga qaratilgan bo'ladi. Bunday metodlar bilan o'quvchilar grammatik qoidalarni bilishlari mumkin, biroq ularni amalda qo'llashda, mustaqil fikrlashda va ijodiy yondashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Zamonaviy yondashuvlar esa global ta'lim tizimidagi yangilanishlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning keng tatbiqi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida shakllangan bo'lib, hozirgi davr o'quvchisining ehtiyojlari, dunyoqarashi va rivojlanish bosqichlariga mos keladi. Bu yondashuvlar o'quvchini dars jarayonining markaziga qo'yadi, uni faollikka, fikrlashga, muloqotga va amaliy faoliyatga jalb etadi. Ayniqsa, ot so'z turkumini o'rgatishda zamonaviy metodikalar orqali o'quvchilar so'zning shakli va ma'nosini chuqur anglaydi, uni turli kontekstlarda to'g'ri ishlatishni o'rganadi, fikrini grammatik jihatdan to'g'ri va erkin ifoda eta oladi. Zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, ta'limiy o'yinlar, vizual materiallar va multimediya vositalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli va ijodiy muhitda tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilarning bilimga

bo‘lgan qiziqishini orttiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi va bilimlarni barqaror o‘zlashtirishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari, ayniqsa boshlang‘ich sinfda ot so‘z turkumini o‘rgatishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu yondashuvlar o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, amaliy bilimga ega bo‘lishini ta‘minlaydi va ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu boisdan, bugungi kunda an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlar orasida oqilona integratsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. T.: Bayoz, 2022. – 304 b.
2. Ro‘zmetova M. *Axborot texnologiyalari yordamida dars samaradorligini oshirish.* – Toshkent, 2022.
3. Begmatov S., Tillayeva T. *Boshlang‘ich ta‘limda so‘z turkumlarini o‘rgatish metodikasi.* – Toshkent, 2020.
4. Haitboyeva G. *O‘zbek tili morfologiyasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Rahmatullayev Sh. *O‘qituvchining metodik qo‘llanmasi (Ona tili darslari uchun).* – Toshkent, 2018.
6. Hasanboyeva G. *Til o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar.* – Toshkent, 2023.



-
7. www.learningapps.org – Interaktiv mashqlar yaratish platformasi.
 8. www.wordwall.net – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun onlayn testlar.
 9. www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi rasmiy sayti.